

**EKOLOGIK MA’DANIYATNI YOSHLAR ONGIGA PEDAGOGIK METODLAR YORDAMIDA SINGDIRISH**

**Uzoqjonova Moxinur Diyorbek qizi  
ADPI, biologiya 2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ekologik ta’lim tarbiya, ularning yoshlar ongiga singdirilishi, O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik muammolar va ularning yechimlari, insonlarning tabiatga ta’siri hamda ekologik ta’lim tarbiya haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Ekologik ta’lim –tarbiya, Agrosanoat, qo‘riqxonalar , milliy bog‘lar, biosfera, innovatsion texnologiyalar.*

Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqa bo‘lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayyan darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ekologik ta’lim –tarbiya orqali yoshlarda o‘z yashash muhiti to‘g‘risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam tabiat va insonlarni o‘zaro uzviy bog‘langanlik haqidagi ilmiy nazariy dunyoqarashlarni, o‘lkasi va vatanini ekologik tizimlari ularning paydo bo‘lishi evolyusion rivojlanishi, antropogen ta’sirlar, makon va maydon bo‘yicha tarqalish qonunatlari undan kelib chiqadigan xususiyatlari, boyliklari, holati, kelajak istiqbollari, milliy, regional va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko‘nikma va malakalar yoshlar ongiga singdiriladi. Yer yuzasi atrof muhitni muhofaza qilish uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat va majmualarini qayta tiklashga oid muammolarini anglash va ularni yechimini topishga doir to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyasi ularni tanlangan kasblarga qarab ekologik ta’lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so‘nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ma’rifat masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

«Inson tomonidan biosferaga ko‘rsatilayotgan ta’sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko‘p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi»[2]

Guvohi bo‘layotganimizdek bugungi kunda insoniyat tabiatga jiddiy zarar etkazganiga qaramay, uni asl holatiga qaytarish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Ekologik vaziyatni yaxshilashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri jamiyatning har bir a’zosida zamonaviy ekologik dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo‘shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Yurtimizda ekologik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha tegishli normative huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumaladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

to’g’risida” [3] qarori qabul qilindi. Unga binoan, Konsepsiyaning asosiy maqsadi o’sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg’or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bugungi yoshlar ongiga ekologik ta’lim-tarbiyani singdirish oilada, maktabda barcha fanlarni o’qitishda amalga oshirilishi ko’zda tutiladi. Ekologik ta’lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o’rgata boriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Suvonqulov Jamshid. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari ekologik vakolatlarining huquqiy asoslari tushunchasi, tarkibi va muammolari. Архив Научных Публикаций JSPI, (2020). 1(49). Извлечено от [https://science.i.edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/5176](https://science.i.edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5176)
2. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES
3. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. qizi. (2023). O’zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o’rganish va bartaraf qilish.
4. Science and Education, 4(11), 78–83. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6393>.